

ADIB BETARTIB

Ertak

Bir bor ekan-da, yo‘q ekan, och ekan-da, to‘q ekan, Adib ismli bola bo‘lgan ekan. U odobli bo‘lsayam, ishlari juda betartib ekan. Do‘ppisini ham, ko‘ylagini ham duch kelgan yerga tashlab ketaverar ekan, keyin kerak bo‘lganda qidirishga tushar ekan. Ba‘zan qayerga qo‘yganini eslay olmay, xunobi osharkan. Shuning uchun ham dadasi unga:

— Bolam, pala-partishligingni tashlamasang, katta bo‘lganingda qiynalib qolasan, — der ekan.

Adib dadasining nasihatlarini jimgina eshitar ekan-u, lekin eshitganlari uning u qulog‘idan kirib, bu qulog‘idan chiqib ketar ekan.

Adib o‘spirin yigitcha bo‘lganda dadasi unga duradgorlik kasbini o‘rgatibdi. Chunki o‘zi qo‘li gul usta ekan-da. Kunlar ketidan kunlar o‘tibdi. Adib bu hunarni yaxshilab o‘rganib olibdi. Bir kuni bir bog‘bon uning otasidan rom, eshik tayyorlab berishni so‘rabdi. Dadasi o‘zi betob bo‘lib qolgani uchun, vaqtincha o‘g‘lini yuboribdi.

Adib ishga kirishibdi. Bog‘bon esa o‘z yumushiga unnabdi. U tok qaychini endi qo‘liga olgan ekan, Adibning ovozi eshilibdi:

— Otaxon, iskanani ko‘rmadingizmi?

Bog‘bon ichida “iye, bu qandoq bo‘ldi, asbobini qayga qo‘yganini bilmasa. Mayli, ish bilan unutgandir”, — deb rosa qidirib, oxiri payraxalar orasidan iskanani topib beribdi.

Keyin xomtok qilish uchun endi narvonga ko‘tarilganida yana Adibning ovozi eshilibdi:

— Otaxon, buni qarang, arramni qayga qo‘yibman-a?!

Endi bog‘bonning qoshlari chimirilibdi. Ammo bu gal ham indamay, arrani qidirishga tushibdi. Uni topish ancha mushkul bo‘libdi. U taxtalarning ostidan chiqibdi.

— Ha, hali taxta olayotganimda ostida qolgan ekan-da.

Bog‘bon yana o‘z ishiga ketibdi.

U hali bitta tok zangini qo‘ldan chiqarmasdan yana Adib:

Otaxon, randam hozirgina shu yerda turgan edi, qayoqqa yo‘qolibdiykin? — deb chaqiribdi.

Endi bog‘bon tutaqib ketibdi-da, Adibning oldiga kelib, debdi:

— Isming Adibmi yo Betartibmi? O‘z asbobingni tayinli biror joyga qo‘ymay, na o‘zing ishlayapsan, na meni ishlagani qo‘yayapsan. Qani, jo‘nab qolchi, otang tuzalganida o‘zi kelib ishlaydi!

Shunda Adibning xayoliga otasining: “Betartib bo‘lsang, keyin qiynalasan”, — degan gaplari kelibdi. U bir xo‘rsinibdi-da, bog‘bonning uyidan boshini egib chiqib ketibdi.

To‘lqin Ilhomov
Gulgina kitobidan